



№ 1/2025

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Rasulov B.M., Hasanov Sh.A., Bazorov Q. Tarixiy haqiqatlar tilga kirganda yoxud Bobur Mirzo tug'ilgan joy – "Zodu-budi" xususida	4
Qodirov V.A., Ergasheva U.K. Ekologik tarbiya: o'yinlar va milliy qadriyatlar uyg'unligi .	10
Usmanova U.A. Magistratura talabarlari ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish	16
Umarova Y.T. Kognitiv tilshunoslik tamoyillari asosida o'qitish usullari	23
Janaberegnova A.J. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish hamda takomillashtirishda mediaresurslardan foydalanishning afzalliklari	27
Botirova Sh.O. Plener rasmining xususiyatlari: plenerga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak	33
Bekmuratova Sh.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy maxoratini rivojlantirish	36
Kambarov M.K. Tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishlari talabalariga kulolchilikning rivojlanish davrlari to'g'risida tushunchalarini kengaytirish	41
Maxmudov A.O. Amaliy san'atdagi an'analar va xalq ustalarining pedagogik merosi ...	45
Mamajonov U.M. O'zbek an'anaviy ijrochiligi darslarining o'ziga xos jihatlari va talaba yoshlar madaniyatini yuksaltirishdagi o'rni	50
Xodjayev X.A. Maktab o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltirishda "musiqqa madaniyati" fanining o'rni	55
Yuldashev N.K., Dushabayev D.Sh. Yosh gandbolchilarning turli o'yin amplualaridagi jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish	59
Дулатов Р.Р. Физическая культура, спорт и здоровье студенческой молодежи в современных условиях: проблемы и перспективы развития	63
Alimov Sh.Sh. Zamonaviy oliy ta'limda va inson hayotida jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati	65
Xamidjonov M.U. Milliy o'yinlarni o'rgatishning pedagogik jihatlari	68
G'oziyeva O.M. 10-11-sinf ona tili darslarida til va madaniyat masalalarini o'rganish ..	71
Payg'amov Sh.B. O'zbekiston hududida teatr pedagogikasining rivojlanishi: tarixiy va pedagogik aspektda yondashuv	75
Majidova M.M. O'zbekistonning xx asr o'rtalaridagi madaniy va musiqiy hayotining o'ziga xosligi	80
Qo'shmonov A.A. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishiga jamoalarni ommaviy jalb etish	83
Otashev D.R., Otasheva O.H. Jamoaviy va yakka sport murabbiylarining pedagogik, amaliy va nazariy bilimlarni yetkazib berish salohiyatini oshirish	85
Mamatqodirov Z.N. Kurash sport turining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati ...	89
O'zganboyev D.D. Kurash sport turi tarixi	93
Abdullayev F.D. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati	97
Kuchkorova N.B. Boshlang'ich sinflarda kreativlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	100
Odilova Z.B. Natyurmort rangtasviri va naturalardagi ranglar ifodasi	103
Mirzalimov M.S. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining maqsadi va vazifalari	106
Maxmudov A.O., No'monova M.T. O'zbek san'atining buyuk ijodkorlari: milliy va zamonaviy ijod	110
Ismonov X.B. Chizmachilik fanidan geometrik yasashlar mavzusining boshlang'ich tushunchalari	115

Yaxshiboyeva G.O. Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitishning zarurati	119
Abdullajonova D.R. Talabalarni qo'l mehnatiga o'rgatish orqali kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy didaktik yondashuv asosida tahlili	123
Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N. Mubolag'ani ifodalovchi frazeologik birliklarning til tizimida tutgan o'rni	127
Ermatov Sh.R. O'zbek va ingliz tillarida binomiallarning semantik-strukturaviy xususiyatlari	130
Gadayev H.N. Sozgarlik san'ati va musiqa asboblarning rivojlanish jarayoni	135
Каримова М.М. Миф о музах	139
Ashurov M.A. Musiqa darslarida notalashtirish dasturlaridan foydalanish	144
Ходжаев К.Ю. Роль искусства в объединении тюркских народов: мост культур и веков	150
Собиров А. Реализация STEAM-образования путем внедрения инновационных форм и методов обучения в педагогических вузах	153
Usmanova X.A. Sun'iy intellektni pedagogik ta'limga integratsiya qilish metodik ta'minotini takomillashtirish	158
Abdullajonova D.R., Sirojiddinova X.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirishning pedagogik- psixologik jihatlari	162
Маликова У.Б. Фольклор как инструмент для развития творческого потенциала ...	166
Temirova G.A. Ch.Aytmatov asarlarining o'quvchilar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	172
Jumakulova M.X. Aralash ta'lim jarayonida rag'batlantirish metodidan foydalanish zaruriyati	175
Sirojiddinova G.X. Iqtidorli talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik asoslari	180
Kamoliddinova M.X. Modulli o'qitish orqali talabalarda pedagogik kompetensiyani shakllantirish	184
Tolipova M.G. Tarjimada milliylikni aks ettirish zarurati, shartlari va uchrab turadigan qiyinchiliklar	187
Haydarova G.B. Bolalarda faol tinglash va kirishimlilik qobiliyatlarini rivojlantirish ...	192
Karimova M.M. Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi tendensiyalar	198

**TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISHDA
MEDIARESURLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

<https://zenodo.org/records/14950023>

Janaberegnova Aysuliw Jaksilikovna

Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Jahonda ta'limning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari oliy ta'lim tashkilotlaridagi asosiy e'tiborni "o'qitish" (teaching) paradigmasidan "o'rganish" (learning) paradigmasiga o'tishi bilan xarakterlanadi. Shu bois, ta'lim olishning turli shakllari, xususan, mustaqil ta'lim jarayoniga mediaresurlarni integratsiya qilish, ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash, media ta'lim muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan mediaresurlar bazasini takomillashtirish, talabalarning mustaqil bilish faoliyatini amaliy kasbiy faoliyatga yo'nalganligini ta'minlash, mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Maqolada ushbu metodikani tashkillashtirish, amalga oshirish hamda takomillashtirish masalalari muhokamaga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *mediaresurs, ta'im, metod, o'qitish, AKT, texnologiya, dars, mustaqil ish.*

Аннотация. *Современные тенденции развития образования в мире характеризуются смещением основного внимания в организациях высшего образования с «обучающей» парадигмы на «обучающую». Поэтому необходимо интегрировать медиаресурсы в различные формы образования, в частности, в процесс самостоятельного обучения, определить их педагогический потенциал, усовершенствовать базу медиаресурсов, направленную на создание медиаобразовательной среды, осознать, что самостоятельность познавательная деятельность студентов направлена на обеспечение практической профессиональной деятельности, усовершенствована методика организации самостоятельного образовательного процесса и повышена потребность в повышении его эффективности. В статье рассматривается организация, внедрение и совершенствование данной методики.*

Ключевые слова: *медиаресурс, образование, методика, преподавание, ИКТ, технология, урок, самостоятельная работа.*

Abstract. *The modern development trends of education in the world are characterized by the shift of the main attention in higher education organizations from the "teaching" paradigm to the "learning" paradigm. Therefore, it is necessary to integrate media resources into various forms of education, in particular, the process of independent learning, to determine their pedagogical potential, to improve the base of media resources aimed at creating a media-educational environment, to realize that independent knowledge activities of students are directed to practical professional activities. provision, improved the methodology of organizing the independent education process and increased the need to increase its effectiveness. The article discusses the organization, implementation and improvement of this methodology.*

Key words: *media resource, education, method, teaching, ICT, technology, lesson, independent work.*

Jahon miqyosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning ilmiy- nazariy va metodik asoslarini takomillashtirish, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, talabalarning AKT, raqamli texnologiyalar va media savodxonlik borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Rossiyada tadqiqot texnik universiteti kabi ko'plab muassasalarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarning mustaqil ta'lim olishini xalqaro talablarga mos yangi formatlarda tashkil etish, o'quv jarayonida ijodiy fikrlash, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasida “ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda “tutorlik” tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish” [1] ustuvor vazifalar etib belgilangan. Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning mustaqil ta’limini elektron ta’limiy media muhitda tashkil etish, ularda raqamli va media-axborot singari kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT–industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda boshqalar mazkur maqola muammosining huquqiy-me’yoriy bazasi sifatida xizmat qiladi va maqolamiz dolzarbligini belgilaydi.

Ta’limni axborotlashtirish va zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik asoslari, elektron ta’lim muhitini tashkil etish, elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va qo‘llash masalalari A.Abduqodirov, M.Aripov, U.Begimqulov, R.Boqiev, F.Zakirova, M.Mamarajabov, L.Nabiulina, S.Tursunov, M.Fayzieva, J.Hamidov, F.G‘affarov; media, media ta’lim, mediakompetentlikni takomillashtirish masalalari S.Babadjonov, S.Beknazarova, X.Kadirov, Ya.Mamatova, X.Nekboev, S.Sulaymonova, mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari N.Muslimov, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolipova, N.Xalilov, Sh.Yunusova, O.Qo‘ysinovlar tomonidan tadqiq etilgan [2].

N.Apatova, A.Novikova, V.Osin, L.Fedotova, I.Fomicheva kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarida medianing mohiyati va funksiyalari, ularni ta’lim jarayoniga joriy etish istiqbollari, axborotni idrok etish xususiyatlariga ko‘ra mediaresurslarning didaktik va ta’lim imkoniyatlarini; M.Aleksandrova, D.Zalagaev, N.Karaulova, T.Pavlova, A.Plavkina media ta’lim elementlarini informatika faniga integratsiya qilishni; I.Jilavskaya, L.Zaznobina, Yu.Usov, A.Fedorov, I.Chelisheva, A.Sharikov kabi mediapedagoglar o‘z tadqiqotlarini intensiv amaliyot bilan birlashtirib, media ta’lim sohasini rivojlantirish masalalarini atroflicha o‘rganishgan [3, 4].

Media ta’lim, media kompetentlik, media xabarlarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar A.Hart, R.Hobbs, S.Ladislaus, M.McLuhan, A.Silverblatt, D.Suss, C.Wing; pedagogik dizaynning asosiy prinsiplari va amaliy strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha J.Bruner, N.Crowder, B.Skinner, P.Smith; mustaqil ta’lim va uni tashkil etish masalalari bo‘yicha S.Brookfield, G.Fischer, Ch.Hayes, M.Knowles, H.Long, E.Scharff, A.Toughlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan [5, 6].

Zamonaviy dunyoda media ta’limni – talabalarda media madaniyatini shakllantirish, media matnlarni tahlil qilish, idrok etish, talqin qilish va baholash, ijodiy, kreativ, kommunikativ ko‘nikmalarni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda media texnologiyalaridan

foydalangan holda mustaqil ta'limning turli shakllarini o'rgatishga yo'naltirilgan media resurslari orqali shaxsni rivojlantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

Media ta'lim talabalarining media kompetentligini rivojlantirib, media bilan aloqa jarayonida tanqidiy yondashishni hamda kasbiy-pedagogik faoliyatidagi ahamiyatini tushunishni osonlashtiradi.

Media kompetentlik – bu media ta'lim natijasi sifatida shaxsning media xabarlarini saralash, izlash, baholash, saqlash, uzatish, qayta ishlash hamda ularga tayangan holda media madaniyatining yangi elementlarini yaratish, rivojlantirish va takomillashtirish kabi qobiliyatlaridir.

Yu.N.Gorunning ta'kidlashicha, “media kompetentlik media savodxonlik orqali qo'lga kiritiladi, bu esa, o'z navbatida, media ta'lim yoki media mustaqil ta'lim jarayonida erishiladi”. Shu munosabat bilan ta'limning yakuniy natijalari tizimida savodxonlik tushunchasini boshlang'ich, elementar darajaga qo'ygan B.S.Gershunskiyning fikrlariga tayangan holda, u taklif etgan ta'lim natijalarining umumiy pedagogik jarayon sxemasiga asoslanib, media savodxonlik => media kompetentlik pedagogik zanjirini hosil qilamiz. Demak, media kompetentlik tushunchasi media savodxonlik tushunchasiga nisbatan kengroq va murakkabroq tushuncha. Media savodxonlik media kompetentlikning asosini tashkil etadi.

So'nggi yillarda YUNESKO axborot savodxonligi va media savodxonligini, AKT va raqamli savodxonliklar bilan birgalikda birlashtirib, o'zaro integratsiyalashgan “media-axborot savodxonligi” atamasidan foydalanishni taklif qilmoqda, chunki M.Maklyuen ta'kidlaganidek, “... Haqiqatdan ham savodli bo'lish uchun media olamida savodli bo'lish kerak”.

Media-axborot savodxonligi – bu insonning tobora globallashtirib borayotgan raqamli dunyoda munosib harakat qilishiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Media-axborot savodxonligi axborotni topish, baholash, tushunish, turli xil media axborot vositalaridan tanqidiy va samarali foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Media-axborot savodxonligini o'zlashtirgan o'qituvchilar ta'lim oluvchilarining o'qish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga va hayotlari davomida ta'lim olishlariga yanada samarali yordam bera oladi.

Shulardan kelib chiqib, dissertatsiyada raqamli va media-axborot kompetentliklarini quyidagicha talqin etildi: Raqamli kompetentlik – shaxsning ijtimoiy hayoti va kasbiy faoliyati davomida raqamli texnologiyalar (AKT, mobil qurilmalar va h.k.) dan samarali va xavfsiz foydalana olish, Internet qidiruv texnologiyalaridan foydalana bilish, ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish va uning ishonchliligini tekshirishda onlayn xizmatlar va raqamli vositalardan foydalanish istagi hamda butun jahon to'riga joylashtirish uchun media kontent yaratishda ularni qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Media-axborot kompetentligi – esa media, axborot, AKT, raqamli va h.k. kompetentliklarning o'zaro integratsiyasi bo'lib, shaxsning kundalik va kasbiy faoliyatidagi muammolarni hal etishda axborot va media xabarlarini izlash, tanqidiy va kreativ yondashgan holda tahlil qilish, baholash, ishonchliligini tekshirish, feyk xabarlarini ajrata olish, shaxsiy media mahsulotlarini yarata olish, turli xil media va raqamli texnologiyalar hamda zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish qobiliyatidir.

Ko'plab talabalar mustaqil ishlash qobiliyatining bazaviy ko'nikmalariga ega bo'lishadi, ammo ular ma'lumotlarni faqat eshitish so'ngra o'qish va konspektlash (yozib olish) orqali qabul qila oladi. Mustaqil tarzda o'zlashtiriladigan ma'lumotlarni qabul qilish, tushunish, qayta ishlash, talqin qilish va yozib borish talabalarga birmuncha qiyinchilik tug'diradi, bu esa o'z

navbatida ularning mustaqil ishlash jarayoniga psixologik tayyor emasligini ko'rsatadi. Shunday ekan, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda xoh u ta'lim muassasasida bo'lsin yohud mustaqil tarzda biror axborotni qabul qilib uni o'zlashtirishda ta'lim oluvchining idrok etish (vizual, audial, o'qish/yozish va kinestetik) xususiyatlarini inobatga olish, uning idrok xususiyatlaridagi ustunliklaridan unumli foydalanish darkor. Alohida ta'kidlab o'tish joizki, insonlar orasida 100% u yoki bu tipga mos keluvchilarni uchratish juda qiyin. Shuning uchun ham, VARK modeli to'rt qismli VARK profiliga asoslangan.

O'rganilgan qator tadqiqotchi olimlar va pedagog hodimlar ishlaridan ko'rinadiki, ular o'z ilmiy izlanishlari davomida mustaqil ta'lim jarayoniga shakl jihatdan turli, mazmunan bir hil: "talabalarining belgilangan topshiriqlar bo'yicha, o'qituvchining metodik rahbarligida, ammo uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriluvchi avvaldan rejalashtirilgan ta'limiy faoliyati" deya izoh berishgan. Tadqiqot ishimiz doirasida biz mustaqil ta'lim tushunchasini quyidagicha talqin etdik: mustaqil ta'lim – bu maxsus ajratilgan vaqtda tashkil etilgan, o'qituvchi tomonidan belgilangan didaktik maqsadlar (yangi ma'lumotlarni izlash, ularni anglash, bilim olish, avvalgilari bilan umumlashtirish, tizimlashtirish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish)ga erishish borasida amalga oshiriladigan talabalarining har qanday tizimli tashkil etilgan ta'limiy faoliyatidir [7].

Maqola uchun olib borgan tadqiqot ishimiz davomida o'rganilgan o'quv-normativ hujjatlar hamda mazkur yo'nalishda izlanish olib borgan tadqiqotchi olimlarni fikrlariga tayangan holda talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarga quyidagi umumiy talablar aniqlandi:

bir nafar talaba tomonidan shaxsan bajarilgan ish bo'lishi yoki jamoaviy bajarilgan ishning mustaqil ravishda talaba tomonidan amalga oshirilgan qismi bo'lishi;

tasdiqlangan o'quv rejasi asosida o'rganilayotgan fan yoki ta'lim oluvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tegishli amaliy faoliyat sohasining dolzarb muammolarini o'rganish, tahlil qilish va ochib berishga yo'naltirilgan yakunlangan to'liq ish yoki ishning to'liq yakunlangan bosqichi bo'lishi;

talabaning tadqiq etilayotgan masalalarda yetarlicha savodxonligini va kompetentligini to'liq namoyish etishi;

jarayonning ta'limiy, ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biri yoki bir nechtasiga qaratilgan bo'lishi, hozirgi kunda muhim, ahamiyatga molik bo'lishi;

yangilikning ma'lum elementlarini o'z ichiga olishi, ya'ni faoliyat so'ngida muayyan talablarga javob beruvchi natijaga erishilganini namoyon etishi.

O'z navbatida, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga qo'yilayotgan talablar asosida tadqiqot ishimizda talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etishning vositasi sifatida qaralayotgan mediaresurslarga qo'yiladigan talablarni tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning vositasi sifatida qaralayotgan mediaresurslarini yaratish jarayonida unga qo'yilayotgan talablar hamda talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish jarayoniga qo'yilayotgan talablarni inobatga olmasdan tashkil etish nafaqat ishning samaradorligini pasaytirishi, balki muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

Biz tadqiqotchi O.Raximov tomonidan elektron ta'lim resurslariga berilgan ta'rifga qo'shilamiz: "elektron ta'lim resursi – foydalanuvchi, ya'ni ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan xolda avtomatik rostlanish imkonini beruvchi, egallangan bilimni

avtomatik nazorat kilish tizimi bilan birlashgan o'quv materiallarini uzatish (yetkazish) tizimi hisoblanadi". Tadqiqotimiz davomida, elektron ta'lim resurslarining xususiy holatini, ya'ni tarkibiy qismlarini ajratib, ularni tahlil va sintez qilindi va mazkur jarayonda mediaresurs tushunchasi quyidagi ko'rinishda talqin etildi: mediaresurs – bu o'quv jarayoni davomida bilim olish va ko'nikmalarni hosil qilishda foydalaniladigan axborotni qabul qilishning alohida kanali (ko'rish, eshitish, anglash, tushunib yetish) yoki ularning kombinatsiyasi orqali idrok qilish uchun mo'ljallangan turli shakldagi o'quv materiallari manbaasi tushuniladi. Demak, mediaresurs – o'quv maqsadlarida foydalaniladigan elektron ta'lim resursining tashkiliy komponentidir [8].

Mediaresurslar vositasida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish – tasdiqlangan fan mazmunidagi mustaqil o'rganish, tadqiq etish uchun belgilab qo'yilgan mavzular bo'yicha avvaldan aniq ko'rsatilgan bilim, ko'nikmalar, malakalarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadidagi, o'quv- uslubiy adabiyotlar va qo'llanmalarining o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki mazkur axborotni qabul qilishning maqbul barcha kanallarini qamrab oladigan interaktiv mediaresurslar bilan ta'minlangan, qo'lga kiritilgan yangi ma'lumotni, olingan bilimlarni mustahkamlash va turli (o'quv, amaliy, tadqiqot va boshqa) ishlarni bajarish uchun talabaning mustaqil ravishda olib borgan faoliyati hisoblanib, uning samaradorligini baholash uchun natijani (testlar, imtihonlar, bayonlar, referatlar, hisobotlar va qo'lga kiritilgan natijalarni baholashning boshqa turlari ko'rinishida) nazorat qiluvchi jarayonni nazarda tutadi.

O'quv maqsadlarida foydalaniluvchi ta'limiy mediaresurslar ham elektron ta'lim resurslariga qo'yiladigan pedagogik, psixologik, didaktik, metodik, ergonomik, estetik, texnik va texnologik talablarga javob berishi kerak.

"Ta'limda axborot texnologiyalari" fanini o'qitish jarayonida mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik modeli, "METosphere" texnologiyasi va "METosfera: elektron mustaqil ta'lim media muhiti" sinovdan o'tkazildi. Unda mustaqil ta'limni rivojlantirishning metodik asoslarida ta'lim mazmuni, shakl, metod, vosita, didaktik shart-sharoitlar "METosphere" texnologiyasi va uni tashkil etish bosqichlari negizida tahlil qilindi.

"METosphere" texnologiyasi 6 ta bosqich asosida tashkil etilib, unga ko'ra 1-Learn bosqichida talaba maxsus yaratilgan elektron mustaqil ta'lim media muhiti orqali mustaqil ravishda o'qish, o'rganish va tushunish faoliyati bilan shug'ullanadi, mavjud bilimlarini mustahkamlaydi, yangi bilimlarni egallaydi. 2-Practice bosqichida qo'llash faoliyati, o'zlashtirilgan tushunchalarini mustaqil ravishda amaliy bajarib, tatbiq etadi. 3-Innovate, Improve, Optimize bosqichiga o'tganda transformatsion faoliyat ya'ni olingan bilimlarni va mavjud usullarni takomillashtiradi, optimallashtiradi. 4- Feedback bosqichida transformatsion faoliyat natijalarini namoyish etadi va "peer review" tamoyili, ya'ni o'z doirasidagi insonlar (tengdoshlari, kursdoshlari) fikri asosida "constructive feedback" yig'adi. 5-Reflection bosqichida refleksiv faoliyat orqali o'zining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi va xulosalar chiqaradi. So'nggi 6-Create bosqichida, barcha bosqich natija va xulosalariga tayangan holda kreativ yaratuvchanlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Mazkur bosqichda mustaqil ta'lim faoliyati yakunidagi yaratuvchanlik faoliyati natijalari (kurs ishi, ijodiy loyihalar va h.k) o'qituvchiga ma'lumotni uzatishning zamonaviy raqamli usullari (elektron pochta, telegram va h.k) orqali taqdim etiladi.

"METosphere" texnologiyamizni amalga oshirish uchun tadqiqotimiz davomida maxsus "METosfera: elektron mustaqil ta'lim media muhiti" deb nomlanuvchi ta'limiy dasturiy ta'minot

ishlab chiqildi. Uni yaratishda talabalarni mustaqil ta'limga bo'lgan qiziqishlari, motivatsiyasini oshirish, do'stona va interaktiv interfeysni yaratish shartlari kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida ushbu maqsadni amalga oshiruvchi shart-sharoitlar va yondashuvlar o'rganildi. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirishning raqamli, media-axborot kompetentliklarini rivojlantirishga qaratilgan strukturali modeli takomillashtirildi. Mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish modeli yordamida pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining mustaqil ta'limini "Ta'limda axborot texnologiyalari" fani doirasida tashkil etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi. Shuningdek, mazkur bosqichda talabalarda raqamli va media-axborot kompetentligini baholash ko'rsatkichlari, darajalari va mezonlari takomillashtirildi. Tadqiqotimiz natijasi, mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarimiz to'g'ri ekanligini ko'rsatadi.

Mediaresurslar vositasida pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari quyidagicha xulosalar qilish imkonini berdi:

Ilmiy tadqiqot ishlarida pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlili, shuningdek talabalarining mustaqil ta'limini o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim tashkilotlarida mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini takomillashtirishga extiyoj mavjudligi aniqlandi.

Pedagogik oliy ta'lim tashkilotlari talabalari mustaqil ta'lim jarayonini mediaresurslar vositasida tashkil etish va o'tkazishning pedagogik imkoniyatlari, unga qo'yiladigan talablarni o'rganish borasida o'tkazilgan izlanishlar shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'lim jarayoni talabalarni fan yuzasidan faol ilmiy va amaliy ishlashga undaydi. Natijada talabalarda fan sohasi yuzasidan kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishga olib keladi. Mazkur jarayonni mediaresurslar vositasida tashkil etish esa, o'z navbatida, samaradorlikni oshishiga xizmat qilishi asoslandi.

Ta'lim oluvchi uchun qulay va do'stona media ta'lim muhitini yaratish, o'quv jarayonini soddalashtirish, ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv kontentini yaxshi o'zlashtirilishi va oson eslab qolinishini ta'minlovchi fanga doir axborot va bilimlarni taqdim etishning eng samarali usullarini topish orqali mustaqil ta'lim jarayonining samaradorligiga erishish mumkinligi aniqlandi.

Mediaresurslar vositasida mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish jarayonida talabalarining raqamli, media- axborot kompetentligini oshirish maqsadida maxsus interaktiv va do'stona foydalanuvchi interfeysiga ega, mustaqil ta'lim olish imkonini beruvchi uzluksiz ketma-ketlikga ega va turli tizimlarga oson integratsiyalanuvchi hamda talabaga moslashuvchan "METosfera: elektron mustaqil ta'lim media muhiti" dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinash natijalariga ko'ra uning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslandi.

"METosfera: elektron mustaqil ta'lim media muhiti" dasturiy ta'minotining kasbiy-dasturiy vositalarini o'zida mujassam etgan mediaresurslar (axborotni samarali izlash algoritmi, axborotni taxrirlash texnologiyasi, professional taqdimot yaratish, 3D effektli elektron qo'llanma yaratish, video qo'llanma yaratish, ijtimoiy mediani yuritish) bazasi kengaytirildi.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik modeli, uning maqsadli, jarayonli, natija bloklari tarkibiy tuzilmasi takomillashtirildi. Maxsus ishlab chiqilgan amaliyotga yo'naltirib o'qitish yondashuvi asosida kasbiy-dasturiy vositalarini o'zida mujassam etuvchi mediaresurslar bazasi bilan to'ldirilgan talabaning bilim darajasiga moslashuvchan mustaqil ta'lim olish imkonini beruvchi dasturiy ta'minotdan foydalangan holda mediaresurslar vositasida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning pedagogik modelining asosi bo'lgan – "METosphere" texnologiyasi takomillashtirildi.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06/19/5847/3887-son, 09.10.2019 y.
2. Qosimov R.S. tahriri ostida. «Oliy ta'lim». Me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami. Toshkent. «Istiqlol». 2004 yil.
3. Ageev V.N. Elektron kitob: ijtimoiy muloqotning yangi vositasi. M. 2017-yil.
4. Grechixin A.A., Dreve Yu.G. Universitet darsligi: tipologiya, standartlashtirish, kompyuterlashtirish. M. "Logotolar". 2020
5. Norenkov I.P. Modulli darslik tushunchasi. Axborot texnologiyalari. 2016-yil, № 2.
6. Retinskaya I.V., Shugrina M.V. "Ta'limda IBM va Macintosh." Kompyuter dunyosi. № 3.
7. Ruziev K.I. "Zamonaviy avlodni tarbiyalash va tarbiyalashda zamonaviy darslikning o'rni". Xalqaro konferensiya materiallari "Uchinchi ming yillik darsligi". Olmaota. 201- yil
8. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. Toshkent. «Sharq». 2002-yil.

UO'K:744(72)

PLENER RASMINING XUSUSIYATLARI: PLENERGA QANDAY TAYYORGARLIK KO'RISH KERAK <https://zenodo.org/records/14950031>

Botirova Shohidaxon Odiljonovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada plener rasmining xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan, hamda plener amaliyotiga qanday tayyorgarlik ko'rish uchun maslahatlar berilgan.

Kalit so'zlar: Plein Air, plener xususiyatlari, plenerga tayyorgarlik, tabiatda rasm chizish, yorug'lik o'zgarishi, landshaft

АННОТАЦИЯ. В этой статье представлена информация об особенностях пленэрной живописи. А также советы о том, как подготовиться к занятиям на пленэре.

Ключевые слова: Пленэр, особенности пленэра, подготовка к пленэру, живопись на природе, смена света, пейзаж.

Abstract. This article contains information about plener rasminig properties. As well as tips on how to prepare for plener practice.

Key words: Plein air, features of plein air, preparation for plein air, painting in nature, changing light, landscape.

Pleener (fransuzcha "en plein air" - havo ostida) san'ati tabiat manzaralarini ochiq havoda tasvirlashni o'z ichiga oladi. Ushbu usul rassomlarning realistik tasvirlar yaratishiga imkon beradi. Pleener amaliyotiga tayyorgarlik nafaqat ilmiy-nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalarni ham talab etadi.

"Plener" so'zma-so'z frantsuz tilidan "ochiq havo"deb tarjima qilingan. Texnika tabiatda rasm chizishdan iborat. Ushbu turdagi rasm rassomlarga o'zlarini ochish, atrofdagi ranglarning g'alayonini iloji boricha aniqroq etkazish imkoniyatini beradi. Plein Airning asosiy xususiyati

